“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Har bir shaxs huquq va erkinliklarining qonuniy kafolatlari xususida

Ayub Muxammadiyev,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Professor
e-mail: Ayub.mukhammadiev@gmail.com

Аннотация. Maqoladainson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganligi yoritilgan, shuningdek har kimga buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi kafolatlanishi bayon qilingan, shu bilan birga agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi e'tirof etilgan va so‘ngi islohotlar yoritilgan.

Калит сўзлар. inson huquqlari, tamoyil, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash, qonun, vakolatli, mustaqil, xolis, sud, huquq, kafolat, davlat, huquqiy himoya, xalqaro organlar, murojaat etish, islohot.

Аннотация. В статье освещаетсямасштабная работа, провадимаядля защиты прав человека, а такжеутверждается, что каждому гарантируется рассмотрение дела компетентным, независимым и беспристрастным судом в усановленные законом сроки для восстановления нарушенных прав и свобод. В то же время, если все внутренние средства правовой защитыгосударстваисчерпаны, признаётсяправо человека на обращение в международные органы по защите прав и свобод человека, и освещаются последующие реформы.

Ключевые слова. права человека, принцип, восстановление нарушун-ных прав и свобод, закон, компетентный, независимый, беспристратный, суд, право, гарантия, государство, првовая защита, международные органы, апелляция, реформа.

Annotation. This article highlights the extensive work beingdone to protect human rights and asserts thateveryone isgarateed a hearingby a competent independent, and impartial court within the temframe establishedby low to restore violated righ and freedoms. At the same time, if oll domestic legal remedies have been exhausted, the right of individuals to appeal to internationalhuman rights and freedoms bodies is recognized, and subsequent reforms are discussed.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. human rights, principle, restoration of violated rights and freedoms, law, competent, independent, imperial, court, right, guarantee, state, legal protection, international bodies, appeal, reform.

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida yangi bosqichga koʻtarish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda.

Yangi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilab qoʻyilgan.

Har kimga oʻz huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan koʻrib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib boʻlingan boʻlsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Ha kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning oʻrni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

Har bir shaxsga oʻz huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish haqidagi konstitutsiyaviy huquqiy me'yor Oʻzbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustdagi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish toʻgʻrisida'gi qonunida[2] toʻla rivojlantirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi “Sudlar toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) qonuniga koʻra[3], fuqarolar huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish sud organlarining vazifasi qilib belgilangan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) qonunining 4-moddasiga koʻra[4], prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish, deb mustahkamlab qoʻyilgan.

Gʻayri qonuniy xatti-harakatlar deyilganda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazadigan xatti-harakatlar tushuniladi.

2017-yil 11-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati toʻgʻrisi-da”gi qonuni [5] 2-moddasiga binoan *shikoyat*-buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish toʻgʻrisidagi talab bayon etilgan murojaat tushuniladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shuningdek, qonunning 3-moddasida murojaat turlari bayon etilib, unda ariza, taklif, shikoyat, elektron murojaat, takroriy murojaat, anonim murojaat, murojaatning dublikati kabi tushuncha va qonunchilik tizimidagi yangi qoidalar oʻz ifodasini topdi.

Ushbu qonunning 32-moddasida esa murojaatlarni koʻrib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini bayon etib, murojaatni qabul qilishni yoki koʻrib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan boʻysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish huquqi mustahkamlandi.

Sudga shikoyat qilish huquqi – fuqarolar tomonidan ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida tiklashni talab etadigan huquqidir.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish toʻgʻrisida”gi qonunga binoan davlat va nodavlat organlari va mansabdor shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlari (qarorlari) jumlasiga:

a) fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;

b) fuqaroning huquq va erkinliklari roʻyobga chiqishiga monelik tug'dirgan;

c) fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab boʻlgan xatti-harakatlar (qarorlar) kiradi.

Fuqaro oʻz huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki boʻysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Berilgan shikoyatni tegishli davlat organi, mansabdor shaxs bir oylik muddatda koʻrib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatini qanoatlantirish rad qilingan boʻlsa yoki u shikoyat bergan kundan boshlab bir oy mobaynida javob olmagan boʻlsa, sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

Shikoyatni huquq yoki erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga koʻra jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakolat berilgan vakili berishi mumkin. Shikoyat fuqaroning xohishiga qarab yo u yashaydigan joydagi sudga yoki organ joylashgan yerdagi, yoxud xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxsning ish joyidagi sudga beriladi.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga koʻra oʻtkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin.

Fuqaroning davlat va nodavlat organlari, mansabdor shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyati sud tomonidan ma'muriy sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida koʻrib chiqiladi.

Shikoyatni koʻrib chiqish natijalari boʻyicha sud qaror chiqaradi. Sud shikoyatning asosliligini aniqlagach, ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) qonunga xilof deb topadi, fuqaroning talablarini qanoatlantirish majburiyatini yuklaydi yoki uning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

buzilgan huquq va erkinliklarini oʻzgacha yoʻl bilan tiklaydi.

Agar ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) sud fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzmaydigan qonuniy xatti-harakat (qaror) deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi. Sudning qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sudga shikoyat berilishi mumkin. Agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib boʻlingan boʻlsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat va nodavlat organlari, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shart.

Sudning qarori xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilgan organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, fuqaroga qaror qonuniy kuchga kirgach kechi bilan oʻn kun ichida yuboriladi. Qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi shart.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimida maʼmuriy sudlar tashkil etildi. Shu paytga qadar fuqarolik ishlari boʻyicha va iqtisodiy sudlar tomonidan koʻrib kelinayotgan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni koʻrib chiqish maʼmuriy sudlar zimmasiga yuklatildi. Maʼmuriy sudlar faoliyatini protsessual tartibga solish uchun Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksi qabul qilindi. Ushbu islohotlar fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqini taʼminlashga oid yuridik kafolatlar tizimini yanada takomillashtirdi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida har bir insonning unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga egaligi mustahkamlangan. Bu huquq esa, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu 55-moddasida mustahkamlab qoʻyilgan.

Deyarli butun dunyo amaliyoti xususan Oʻzbekistonda har qanday shaxs, fuqarolik mansubligidan va boshqa xususiyatlaridan qatʼi nazar, shuningdek, har qanday yuridik shaxs, mulkchiligidan qatʼiy nazar davlat sudlariga murojaat qilishlari mumkin. Bu qoida Oʻzbekiston Respublikasi “Sudlar toʻgʻrisida”gi Qonunining 9-moddasida ham mustahkamlangan boʻlib, unga asosan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday gʻayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek, hayoti va sogʻligʻi, shaʼni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida boʻlish huquqiga ega.

Hozirda yurtimizda sud-huquq sohasida islohotlarda ham aynan sudlarning inson huquqlarini himoya qilish vazifasiga alohida eʼtibor berilmoqda. 2017-yil 13-iyun kuni boʻlib oʻtgan Sud organlari

tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida asosiy maqsadimiz, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishdan iboratdir va buning uchun esa Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Sudyaning ongida-adolat, tilida-haqiqat, dilida-poklik bo‘lishi kerak”[1].

O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari faoliyati to‘g‘ri tashkil qilish va fuqarolarning huquqlarini davlat mansabdor shaxslari tomonidan buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasida har bir fuqaroning davlat va nodavlat organlari yoki mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o‘z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga egaligi belgilangan.

Faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga murojaat qilish bir oz farqli xususiyatlarga ega. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha ayblilik masalasi sud tomonidan hal qilinishiga yordam berish maqsadida sudga qadar ish yuritish bosqichi joriy qilingan bo‘lib, ushbu bosqichda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv va tergov organlari va prokurorlar faoliyat yuritadilar. Odatda ushbu organlar ish yurituvidagi holatlar yuzasidan mazkur organlar bo‘ysunadigan yuqori turuvchi organlarga yoxud prokurorga shikoyat qilinishi va e'tirozlar bildirilishi ularning ko‘rib chiqilishiga asos bo‘ladi. Boshqacha tarzda aytadigan bo‘lsak, milliy qonun hujjatlarimizga ko‘ra, jinoiy nizolar bo‘yicha fuqarolarning to‘g‘ridan to‘g‘ri sudga murojaati ish yuritishga asos bo‘lmaydi, surishtiruv va tergov organlaridan sudga oshirilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sud himoyasida bo‘lish huquqi ta'minlanadi.

Oxirgi vaqtlarda jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish bosqichlarida ham sudning himoyasida bo‘lish huquqini bosqichma-bosqich kiritish jarayoni kuzatilmoqda. Bu dastavval, huquq fanida mashhur bo‘lgan “habeas corpus” qoidasini joriy qilish va rivojlantirish orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Agar bu holatning qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo‘linsa, O‘zbekistonda 2008-yil 1-yanvardan boshlab — qamoqqa olishga rozilik berish, 2008-yil 23-dekabrdan boshlab amnistiya aktiga asosan javobgarlikdan ozod qilish, 2012-yil 19-sentabdan boshlab, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishga va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishga rozilik berish, 2014-yil 5-sentabrdan boshlab, uy qamog‘ini qo‘llashga rozilik berish, 2017-yil 30-martdan boshlab, murdani eksgumatsiya qilishga va pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlashga rozilik berish amalda sudlarning mutlaq

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

vakolatiga oʻtkazildi. Shu oʻrinda, “Oʻzbekiston -2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-sonli Farmoni bilan jinoyat ishlari boʻyicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimining kiritilishi va amaldagi ijrosini shaxs huquq va erkinliklarining kafolatini ta'minlash borasida qoʻyilgan muhim qadam deb e'tirof etish joiz [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – 400 б

2.Oʻzbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish toʻgʻrisida”gi qonuni.

3. Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi “Sudlar toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) qonuni.

4.Oʻzbekiston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) qonuni, 4-moddasi.

5.Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati toʻgʻrisida”gi (yangi tahriri) qonuni, 2-moddasi.

6. https://www.lex.uz.